

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

MAXSUS SON (2021-yil, IYUN)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, MAXSUS SON

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@mail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjizodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Baxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

MODULLI TA'LIMNI JORIY ETISHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Maqolada modulli ta'lim texnologiyasining mazmun-mohiyati uni ta'lim tarbiya sohasida qo'llash, talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotga tadqiq etish, mustaqil fikrlash: tahlil qilish qobiliyatlari rivojlantirish, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay olish, xato va kamchiliklarini anglash hamda ularni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: modul, ta'lim texnologiyasi, uzluksiz ta'lim, individuallashtirish, ta'lim sifati, kommunikatsiya.

Содержание модульной образовательной технологии в статье - суть ее применения в сфере образования, изучение теоретических знаний на практике, самостоятельное мышление: развитие аналитических навыков, умение оценивать собственные знания и умения: формирует навыки их исправления.

Ключевые слова: мод , образовательная технология, непрерывное образование, индивидуализация, качество обучения, коммуникация.

The content of modular educational technology in the article is the essence of its application in the field of education, the study of theoretical knowledge in practice, independent thinking: the development of analytical skills, the ability to assess one's own knowledge and skills: forms the skills to correct them.

Key words: module, educational technology, continuous education, individualization, quality of education, communication.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 2909-sonli Qarorida qarorida oliy ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan [1].

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktabrdagi PQ 4724 - son Farmoyishi bilan tashkil qilingan ishchi guruh tomonidan Oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijasiga ko'ra oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunining tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash ko'rsatildi [2].

Asosiy qism. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, universitetimizda ham bu sohada juda katta ishlar qilinmoqda. Modulli ta'limda talabalar aniq joy va vaqtga bog'lanib qolmasdan, yer sharining xohlagan joyidan, xohlagan tezlikda materiallar bo'yicha harakat qilishlari mumkin. Chunki barcha resurslar bir joyda va bir manzilda mavjud bo'ladi. Elektron format “darslik” sifatida nafaqat matn, balki videoroliklarning turli resurslardan foydalanish imkonini ham beradi.

Barcha materiallar tizimda saqlanadi, ularni yorliqlar, teglar va gipermatnli yuklamalar yordamida tashkil etish mumkin.

Bundan tashqari ta'lim sifati nazoratga olingan bo'lib, MOODLI har bir talabaning portfoliosi (talabaning ishlari, baholari, o'qituvchining izohlari va tavsiyalari, xabarlarini) yaratadi va tizimda saqlaydi. Tizim talabalarning faolligi davomatini nazorat qilish va ularning tarmoqdagi o'quv soatini kuzatib borish imkonini beradi. Shuningdek talabalar bo'yicha turli (kim kemani ko'chirdi, qaysi uy vazifalarini bajardi, testlar bo'yicha qanday baholar oldi) statistik ma'lumotlar to'planib boradi. Shu asosida talabalar qanchalik fanni o'zlashtirganliklari haqida ma'lumot to'planadi hamda keyin o'rganish uchun foydali manbalar tavsiya etiladi. Modulli o'qitish talaba va rahbariyat birgalikda ishlashga mo'ljallangan, buning uchun tizimda juda ko'p imkoniyatlar ko'zda tutilgan bo'lib, bular ensiklopediya, glossariy, bloglar, formalar, praktikumlar va boshqalardir. Shu sababli ta'lim xududiy asinxron tarzda amalga oshiriladi. Bunga har bir talaba materialni, xuddi shuningdek, onlayn leksiya va seminarlarni real vaqt rejasida tashkillashtirib o'zi xohlagan tarzda o'rganadi. Modulning eng kuchli tomonlaridan biri professor-o'qituvchilar talabalar bilan o'zaro doimiy aloqada bo'lishda (kommunikatsiya) uchun keng imkoniyat mavjudligidir. Turli videokonferensiyalar, formalarda guruhlar bilan muloqotlar o'tkazish xatlarini baholash, ularga turli xil formatdagi fayllarni biriktirish, shaxsiy xatlar va izohlarda o'qituvchilar bilan aniq, muammoni hal etish, muhokama qilish mumkin. Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib

ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyati yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi. Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiyalar zamirida faoliyatli yondashuv yotadi va bu nuqtayi nazardan to'raligicha o'qitish-jarayon to'raligicha yoki fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga mufoviq kasbiy faoliyat elementlarini talaba tomonidan tizimli o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulda ta'lim jarayonini boshqarishdagi sifat va samaradorligini oshirishdagi xilma-xil masalarning yechimlari mavjud. Bundan tashqari tizimning funktsionalligini kengaytirish imkoniyati katta. Muammoni o'rganish zamonaviy globallashtirish, jadallashtirish va modernizatsiya davrida bo'lajak o'qituvchi qiyofasida aqliy, ma'naviy, axloqiy jihatdan rivojlangan kamil insonni ko'rish dolzarb muammodir.

O'qitishning modulli tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972-yilda YUNESKOning Tokiodagi butun jahon konferensiyasida so'z yuritilgan. Modulli o'qitish texnologiyasi funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyaning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi. Modul o'qitish sohasidagi xalqaro tajribalarni o'rganishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uning ilg'or jihatlari o'zlashtirib, O'zbekiston ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish modulli o'qitish texnologiyalarining yaratish va tadqiq etishda mazkur tajribalardan samarali foydalanishdan iborat. Professor N.H. Avliyov ta'lim bilan aytganda, modul - bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan.

Pedagogik amaliyotda tadqiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Mavjud manbalar bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'limning modernizatsiyalash sarmahsul mazmunini tanlash imkoniyatlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Bu sohada bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan R. Safarova, R. Axlidinov, A. Sohibov, I. Musayev, N. Djumayeva, I. Ikromov va boshqalarning so'nggi yillarda amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi.

Biroq ta'lim samaradorligini oshirishda modul ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi bugungi kun talablari darajasida o'rganilmagan.

O'qitishning modulli tizimini joriy etish ta'limni individuallashtirish va tabaqallashtirishga keng yo'l ochib beradi.

Bu bosqichda o'quv - tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish talab qilinadi. Bu vazifalarni hal etish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonlarida ko'plab samarali texnologiyalardan foydalanib, ta'lim sifatini ko'tarishga erishilmoqda.

Shunday texnologiyalaridan biri modulli o'qitishdir. Modulli o'qitish texnologiyasi modullarga asoslanadi. Shu o'rinda modul tushunchasiga aniqlik kiritaylik. "Modul" lotincha so'z bo'lib "qism" yoki "bo'lak" degan ma'noni bildiradi. Demak modul - pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha modulni olishiga qarab tegishli darajadagi modullar deyiladi.

Muhokamalar va natijalar. Modul texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi quyidagi darajalarda oydinlashadi: ta'lim muassasasining maqsadi hamda o'qituvchi va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi, o'quv predmetining maqsadi, modul maqsadi va o'qituvchining talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining moduli, uning tashxis qilinadigan oxirgi natijalari. Modul o'qitish texnologiyasiga o'tishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: metodik majmualar yaratish, O'UM yaratish, ta'lim jarayonini didaktik, metodik va tashkiliy jihatdan ta'minlash nazarda tutiladi. O'qitishning modulli texnologiyasi - o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Bularga faoliyatlilik, tizimli kvantlash, motivatsiya (qiziqtirish), modullilik, muommalilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillari kiradi. Modul texnologiyasi asosida o'qitish quyidagi ketma - ketlikda amalga oshiriladi:

1. Modul texnologiyasi asosida o'qitishni tashkil etishda dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish. Modul texnologiya asosida o'qitishga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun dastlab uch yo'nalishda ish olib boriladi: tayyorgarlik holati, mavjud shart-sharoitlar, o'quv metodik jihatlar tahlil qilinadi.

2. Modulning o'quv maqsadi va mazmunini belgilash. Modul texnologiyasi asosida o'qitishda dastlab o'quv fanini o'qitishning maqsadi va mazmuni, modullarning maqsadi va mazmuni belgilanadi. O'quv maqsadlari modul yakunida ta'lim-tarbiya natijasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, malaka va shaxsiy fazilatlarini belgilaydi. O'quv maqsadlari tarmoq ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqiladi. Modulni o'rganish maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishganlik darajasini baholash shunchalik oson bo'ladi. Ushbu bosqichda DTS, TTS, namunaviy o'quv reja va dastur asosida ishchi o'quv reja, fan dasturlari

ishlab chiqiladi. Mazkur bosqichning eng muhim jarayonlaridan biri – bu o'quv material mazmunini belgilashdir. O'quv materiallarni asosiy muhim jihatlarni ajratib olish va ixchamlashtirish, hayotiy misollar keltirish, o'qituvchi va talabalar tomonidan o'rgatish, o'rganish lozim bo'lgan eng asosiy mazmun belgilanadi hamda o'qitish tamoyillariga ko'ra ma'ruza matn tayyorlanadi.

3. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish. Ushbu bosqichda DTS, TTS, o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim modeli, uni amalga oshirishning texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Ta'lim modeli va texnologik xaritada dars bosqichlari, unga ajratilgan vaqt, pedagog va talabalar faoliyatining olib borish uchun o'qitishning maxsus tanlangan metod, shakl, va vositalari keltiriladi.

4. Modul bo'yicha o'quv–didaktik materiallar va o'quv vositalarini tayyorlash. Mashg'ulotning xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv–didaktik materiallar, texnik va real vositalarni to'g'ri tanlash hamda ulardan talab doirasida foydalanish nazarda tutiladi.

Audiovizual vositalar tegishli sohalar bo'yicha texnologik jarayonlarda funksiyalar to'g'risida keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

5. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma–ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi: Qiziqirish (motivatsiya uyg'otish).

Bilim – bu o'zlashtirilgan va xotirada saqlangan ma'lumotlar bo'lib, uni tez va aniq biror holatga mos ravishda ishlatish mumkin. Bilim quyidagi 3 ta turdan tuzilgan:

Dalil - bu o'qitish obyektini anglash va to'g'ri belgilash (masalan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z yo'nalishini aniq va to'g'ri tanlay oladi).

Tushuncha - bu o'rganilgan dalilni tushuntirish, ta'riflash, shuningdek, tasnif qilish.

Tamoyil - umum qabul qilingan qoida. U bir yoki bir necha tushunchalar o'rtasidagi munosabatni ifoda etadi.

Amaliy ta'lim qismiga taalluqli kasbiy sohani tahlil qilish ta'lim jarayonini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy–mantiqiy emas, balki harakatlarga yo'nalgan tarzda kechadi.

Kasbiy sohani o'zlashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin: o'qituvchi o'quvchilarning ko'z o'ngida nafaqat kasbiy soha bo'yicha bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs, balki boshqa sohalar bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi.

U bu bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda turli qiziqarli o'yin va usullardan foydalaniladi. Bu orqali uning o'quvchilar oldidagi obro'–e'tibori ortadi. Shuning uchun o'qituvchidan doimo o'z ustida ishlash va "har sohadan xabardor" bo'lishi talab etiladi.

Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hatto darsga taalluqli bo'lmagan ma'lumot bilan boshlash mumkin. Masalan: mavzu bilan bog'liq qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi. Bu o'quvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi. O'qituvchi o'qitishning faol metodlari yordamida o'quv materialni tushuntiradi. Yangi modul birligini o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi. Talabalarga modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Talabalarni guruhlarda hamkorlikda ishlash, mustaqil ravishda topshiriqlar bajarish, erishgan natijalarini taqdim etishga o'rgatish samarali o'qitish usullari hisoblanadi. Modul birliklari tahlil qilish va sintezlash orqali o'zlashtiriladi.

Modul asosida o'qitishda o'quv maqsadlarini qo'yish uslubining o'ziga xos xususiyatga egaligi shundan iboratki, o'quv maqsadlari talabalar faoliyatida ifodalanadigan va aniq ko'rinadigan hamda o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini o'lchash, aniqlash orqali o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bo'lishi kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Modulning o'rganish maqsadlarini quyidagi sohada tuzish mumkin [5]:

Kognitiv o'rganish sohasi. Bu sohada modul bo'yicha qayta ishlangan axborotlarni, ya'ni dalil va tushunchalarni, tamoyil va usullarni tahlil va sintez qilish, baholash orqali qo'llashni o'z ichiga oladi. Kognitiv o'rganish sohasi bilimlarni yodda saqlash, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish, ko'zlangan o'rganish maqsadlarini o'zida mujassam etadi.

Ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modularga ajratiladi va har bir qismni talabalar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir modul yakunida nazorat ishlari o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ushbu texnologiyani qo'llash talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, mustaqil fikrlash: tahlil qilish qobiliyatlari rivojlantirish, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay olish, xato va kamchiliklarini anglash hamda ularni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 8-oktabrdagi PQ 4724 - son Farmoyishi
3. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. -М.: "ИТПИМИО", 1995. - 169 b.
4. Golish L, Fayzullaeva D. Kasb-hunar kollejlari dastur asosida ta'lim berish // Kasb-hunar ta'limi №4.2002.- 24b.
5. Olimov Q. T., Halilov E. Z., Nigmatullayeva Z. Kasb-hunar ta'limida kasbiy fanlardan o'quv maqsadlari va mazmunlarini belgilash belgilash // Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. -2003.-№2. B. 35-36.

МУНДАРИЖА

Бахтиёр АДIZOV. Кр фикрлашга йўналтирилган таълим технологиялари	5
Ширинбой ОЛИМОВ. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи	9
Болта ХОДЖАЕВ. Олий ўқув юртларида муаммоли таълим технологиясини қўллашнинг айрим жихатлари	15
Nasiba AZIMOVA, Zarina NASIMOVA. O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt	20
Акбар ГУЛБОЕВ. Педагоглар фаолиятини ташхис қилишнинг назарий ва методологик асослари	26
Qobiljon ABDULLAYEV, Nargiza BOBOMURODOVA. Qadimgi mesopatamiyadagi madaniy-ma'rifiy taraqqiyot sarchashmalari	30
Гулия ХАБИБОВА, Умида БАХРИЕВА. Талабаларнинг мустақил иши - таълимни ташкил этишнинг етакчи шакли сифатида	33
Лола ЭЛИБОЕВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини оширишда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш	37
O'lmas QURBONOVA. O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimi: muammo va istiqbollar	42
Гулчеҳра ИЗБУЛЛАЕВА. Муслихиддин Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асари юксак дидактик манба сифатида	46
Gulnoz TOSHOVA. Pedagogik faoliyat va uni takomillashtirishda pedagog mahorati	52
Manzura OCHILOVA. Sharq mutaffakirlari merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash	57
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinflarda "Atrofimizdagi olam" fanidan "Yashil dorixona" mavzusini o'qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	61
Bobomurod JO'RAYEV. Somoniylar davrida ta'lim tizimi va mazmuni	65
Dilfuza RAKHMONOVA. Equirements for preschool education teacher	70
Matluba XOJYEVA. TA'LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	74
Нигина ИСМАТОВА. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий кадриятлардан фойдаланиш усул ва воситалари	79
Олимжон АХМАДОВ. Бухорода янги усул мактаблари фаолияти (XIX аср охири XX аср I чораги)	83
Nilufar RAXIMOVA. Tarbiya va shaxs kamoloti	89
Gulshan SAIDNAZAROVA. Al-Buxoriyning hadislarida tarbiya masalasi	94
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Методика оценки развития экономического мышления у студентов вуза	98
Маърифат УМУРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мушиқанинг ўрни	103
Oybek ORTIQOV. O'quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash mazmuni	109
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	113
Olimjon AHMADOV, Dilnoza ELOVA. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar)	116
Madina BAXRAMOVA. Modulli ta'limni joriy etishning muammolari va yechimlari	120
Болта ХОДЖАЕВ, Ситора ШАРИПОВА. Талабаларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштиришда муаммоли таълим имкониятларидан фойдаланиш	124
Shaxlo XALILOVA. Jahon pedagogikasida pedagogik muloqotning zamonaviy uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublari bilan integratsiyasi	129
Zuxriddin SHERNAZAROV. Abdulla Avloniyning ma'rifiy-pedagogik faoliyati	134
Феруза ЖУМАЕВА. Ўзбек оилаларида ёшларнинг оилавий тарбия ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш	138